

## YUQUMLI VIRUSLI KASALLIKLARDA BEMOR PSIXOLOGIYASINI TADQIQ QILISH ZARURATI

Dibar Urazbayeva Abdullayevna

*psixol.f.d. (DSc), dots. Ma'mun universiteti (Xiva, O'zbekiston)*

**Аннотация.** *Mazkur maqolada yuqumli virusli kasalliklarda bemor psixologiyasini tadqiq qilish zarurati nazariy jihatdan tahlil qilingan.*

**Аннотация.** *В данной статье теоретически анализируется необходимость исследования психологии пациентов при инфекционных вирусных заболеваниях.*

**Annotation.** *This article theoretically analyzes the need to research patient psychology in infectious viral diseases.*

**Калит сўзлар.** *Psixologiya, salomatlik, emotsiya, stress, onkologiya, psxoemotsional holat*

**Ключевые слова.** *Психология, здоровье, эмоция, стресс, онкология, психоэмоциональное состояние*

**Key words.** *Psychology, health, emotion, stress, oncology, psychoemotional state*

XX asrning oxiridan to hozirgi kungacha butun dunyoda yuqumli kasalliklar bo'yicha epidemik vaziyat murakkabligicha qolmoqda. Ma'lumki, yuqumli kasalliklar, yurak-qon tomir, onkologik kasalliklardan so'ng, keng tarqalganligi va yomon oqibatlar bilan uchinchi o'rinda turadi [3,4-b]. Hozirgi kunda infeksiyon kasalliklar aniqlanishi va tarqalishi dunyo bo'yicha oshib bormoqda. Jumladan, xalqaro kasalliklar klassifikatsiyasi bo'yicha 18,2 kodga ega bo'lgan gepatit S qon orqali yuqadigan gepatit bilan kasallanish tarkibida Yetakchi o'rinni egallaydi va dunyoda o'lim holatlari oshishiga sabab bo'lib, sog'liqni saqlash sohasi uchun ulkan muammodir. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti 2000- yildan buyon gepatit o'limining 22% ga oshganini xabar qiladi. Har yili butun dunyo bo'yicha gepatitdan o'rtacha 700 ming inson hayotdan ko'z yumadi. 2017 yilda chop etilgan birinchi global hisobot asosida gepatit muammosi bo'yicha, 2015 yilda ushbu viruslarning oqibatlaridan 1,34 million odam vafot etgan, butun dunyodagi virusli gepatitning 96% i o'limga sabab bo'lgan. Ushbu yukning 90% dan ortig'i jigar sirrozi va gepatotsellyulyar karsinoma sabab bo'lgan (HSS), bu VGS va VGB natijasida yuzaga keladi [2]. 2019 yil statistik ma'lumotlarga ko'ra dunyoda mazkur virus bo'yicha 290 ming kishi vafot etgan bo'lsa (JSST), Respublikamizda virusli gepatit bilan



kasallanishlar soni aholining 27,3 mingini qamragan. 2020 yilda qayd etilgan o‘lim holatlarining 4,4 % ni yuqumli kasalliklar tashkil qiladi va bu ko‘rsatkichda gepatit kasalligining salmog‘i kattadir. Tadqiqotlarga ko‘ra, Markaziy va Sharqiy Osiyo hamda Shimoliy Afrika dunyoda sariq kasalligining S va B turi eng ko‘p tarqalgan mintaqalar hisoblanib, Markaziy Osiyo respublikalari ichida O‘zbekistonda eng yuqori daraja qayd etilgan [6]. Nafaqat O‘zbekistonda balki butun dunyoda VGS eng jiddiy jigar kasaligi bo‘lib, unga qarshi vaksina hozircha yo‘q.

Hozirgi kunda Jahon Sog‘liqni saqlash tashkiloti (VOZ - JSST) taklif etishicha, salomatlik - bu faqatgina kasallikni va fizikaviy nuqsonlarning yo‘qligi emas, balki bu fiziologik, ijtimoiy va psixologik asoratsiz holatdir. JSST hujjatlarda bir necha marotaba aholi salomatligi bu ijtimoiy sifat deb ko‘rsatilgan.

Surunkali virusli gepatitni S (VGS) muammosining dolzarbligi infeksiyani yuqtirish mexanizmining o‘ziga xos xususiyatlari, og‘ir shakllarning rivojlanish chastotasi va surunkali kurs, shuningdek samarali davolash usullarining yo‘qligi bilan bog‘liq. Shuningdek bunday bemorlarda muhim emotsional iztirob va depressiv kasalliklar, hayot sifatining pasayishi qayd etilgan [1]. Barcha kasalliklarda xastalik nafaqat organizmda balki inson ruhiyatida ham o‘zining reaksiyasi bilan namoyon bo‘ladi. Bu esa bemorlarga tibbiy muolajalardan tashqari psixologok yondashuv qo‘llashni talab qiladi. SHuningdek, onkologik kasalliklarda ham bemorlarning emotsional sohasiga psixologik ta’sir o‘tkazish muammolari yoritilgan [4], [5].

Mazkur kasallik nafaqat tibbiy yondashuv shuningdek psixologik yondashuvni ham talab qiladi. Chunki gepatit S bilan kasallangan bemorlarning psixologik reaksiyalari sezilarli darajada farq qiladi va bu ularning kasallikni davolash to‘g‘risidagi qaroriga ta’sir qilishi, shu bilan birga birlamchi fiziologik buzilishlar ikkilamchi psixologik buzilishlarni keltirib chiqarishi bemor holatini yomonlashuviga hamda davolash samaradorligining pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu o‘rinda psixologlar tibbiyot xodimlari faoliyatida bemor ahvolini yaxshilashda asosiy qo‘llab quvvatlovchi bo‘lib xizmat qiladi.

Aynan shuning uchun ham surunkali virusli gepatit S kasalligi bilan og‘rigan bemorlar emotsional sohasini tadqiq qilish tibbiyot xodimlari, bemor shaxsi va uning atrofdagilari uchun bir qator ijtimoiy muammolarni yechimi uchun imkon beradi:

- inson ichki zaxiralarini yuzaga chiqarish orqali davolashning imkoniyati kengayadi;



- surunkali virusli gepatit S bilan ogʻrigan bemorlarda kasallikning ichki manzarasini oʻrganish davolanishga rioya qilishning psixologik mexanizmlarini tushunishga imkon beradi. Natijada tibbiyot xodimlarining bemorlar bilan ishlashi yengillashadi va davolash samaradorligi oshadi;

- kasallikning kechishini murakkablashtiradigan, terapevtik chora-tadbirlarning muvaffaqiyatiga toʻsqinlik qiladigan va rehabilitatsiya jarayonini sekinlashtiradigan ikkinchi darajali, psixologik xarakterdagi buzilishlar oldi olinadi;

- ichki konfliktlarni chiqarib tashlash, ruhiy zaxiralarni ishga solish, irodaviy sohani rivojlantirish, hayotiy motivatsiyani uygʻotish, emotsional barqarorlikka erishish;

- bemor oʻzini adekvat anglashi hamda bemorning jamiyatga integratsiyasini taʼminlash imkoniyatini beradi.

Mazkur mavzu yuzasudan olib boriladigan ilmiy tadqiqotlardan olinadigan maʼlumotlar shu yoʻnalish boʻyicha taʼlim olayotgan bakalavr, magistratura talabalari hamda fan oʻqituvchilari uchun dasturi amal boʻlib xizmat qiladi.

Demak, yuqoridagilardan kelib chiqib, shunday xulosa qilishimiz mumkinki, inson ruhiyati salomatligini saqlashda muhim koʻrsatkich hisoblanib, tana kasalliklari kelib chiqishi, uni davolashda psixikaning muhim rolini hisobga olish zarurdir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:**

1. Алексеева А.С. Клинико-морфологические проявления хронических гепатитов и цирроза печени различной этиологии во взаимосвязи с психологическим профилем и качеством жизни пациентов: дис. ... канд. мед.наук. Томск, 2010. 358 с.

2. Virusli gepatit boʻyicha strategik maʼlimotlar boʻyicha konsodilatsiyalangan qoʻllanma 2019 6-b.

3. Mirzakarimova D.B, Yuldashev Ya.M. “Yuqumli kasalliklarning erta va differensial diagnostikasi” Toshkent 2019, 216 b, 4-112 b.

4. Уразбаева Д. А. ОНКОЛОГИК БЕМОРЛАР ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК ХОЛАТИНИ ТАДҚИҚ ҚИЛИШ ХУСУСИЯТЛАРИ //НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ “МА’МУН SCIENCE”. – 2023. – Т. 1. – №. 1.



5. УРАЗБАЕВА Д. SOCIO-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF  
LIFE ACTIVITY OF ONCOLOGICAL PATIENTS //O ‘ZBEKISTON MILLIY  
UNIVERSITETI XABARLARI, 2022,[1/10] ISSN 2181-7324.

6. <https://studref.com> › psihologiya › psihologiya\_meditcina

